

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANADIGAN JINOIY
JAZOLAR VA ULARNING JINOIY HUQUQIY TAVSIFI.**

Nishonova Dilzoda Alisher qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 23-22-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998941022596

nishonovadilzoda16@gmail.com

Shukurova Gulchiroy Akmaljon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Yuridik xizmat” yo‘nalishi

2-bosqich 22-22-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998940742908

shukurovagulchiroy4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolalada voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolar va ularning jinoiy huquqiy tavsifi haqida keng fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jarima, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, jabrlanuvchi, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, Jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik, jinoiy jazo.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются уголовные наказания, назначаемые в отношении несовершеннолетних, и их уголовно-правовая характеристика.

Ключевые понятия: штраф, ограничение свободы, лишение свободы, потерпевший, общественно опасное преступление, УК, уголовная ответственность, уголовное наказание.

Abstract: In this article, there is a broad reflection on the criminal penalties imposed on minors and their criminal legal description.

Key concepts: fine, restriction of freedom, deprivation of Liberty, victim, crime with no greater social risk, criminal code, criminal liability, criminal punishment.

Ma'lumki, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlangan jazo chorasi adolatli va uning axloqan tuzalishi, yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur va yetarli darajada bo'lishi darkor. Shu, insonparvarlik prinsipiga muvofiq jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va

yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishi shart.¹

Voyaga yetmaganlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasiga muvofiq jazolar qo'llanishi mumkin:

- jarima;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- ozodlikni cheklash
- ozodlikdan mahrum qilish.

Qayd etish kerakki, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo voyaga yetmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima jazosi tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash paytida jazo tayinlashning umumiy qoidalaridan tashqari voyaga yetmagan shaxsning rivojlanish darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasi, sog'lig'i, masalan ruhiy rivojlanish darajasi, jinoyatni sodir etish motivlari, katta yoshdagi shaxslarning uning xulq-atvoriga salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlar, shaxsiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar aniqlanadi.

Shuningdek, agar shaxs o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan bo'lsa-da, lekin ish sudda ko'rilayotgan vaqtda voyaga yetgan bo'lsa unga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati yoki miqdori voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazo muddati va miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas. Shaxs tomonidan bir necha jinoyat sodir etilib, ulardan ayrimlari voyaga yetmagan, qolganlari voyaga yetgan davrda sodir etilgan bo'lsa, sud jinoyatlar majmui bo'yicha jazo tayinlayotganida avval Jinoyat kodeksining 82-86-moddalari talablariga rioya etgan holda o'n sakkiz yoshgacha sodir etilgan jinoyatlar uchun, keyin esa voyaga yetgandan so'ng sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlab, so'ngra Jinoyat kodeksining 59-moddasiga binoan uzil-kesil jazo tayinlaydi.²

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jarima tariqasidagi jazoni qo'llanilganda mahkum jarima to'lashdan olti oy muddat mobaynida bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimani ikki soati majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Bundan tashqari to'lanmagan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarima axloq tuzatish

¹ Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.

ishlarining bir oyiga tenglashtirilib u axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jarima jazosi turi va miqdori sodir etilgan jinoyatning og'irlik darajasi va sudlanuvchining moddiy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Sud tomonidan jarima jazosi tayinlashda voyaga yetmagan shaxsning mustaqil daromadga, ish haqi yoki mol-mulkka ega ekanligi e'tiborga olinadi. Shu sababdan ham jarima tariqasidagi jinoiy jazoni barcha voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ham qo'llab bo'lmaydi.

Voyaga yetmagan shaxslarga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turlaridan biri majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jinoiy jazo bo'lib, Jinoyat kodeksining majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jinoiy jazo faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jinoiy jazo tayinlashning quyidagi belgilari mavjud:

- jazo voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi;

- jazo voyaga yetmaganlarning o'qish jarayonining buzmasligi;

- o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi;

- mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelganda mazkur jazo bir yilgacha bo'lgan muddatda kuniga ikki soatdan oshmasligi lozim.³

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jinoiy jazo tayinlangan voyaga yetmagan mahkum mazkur jazoni o'tashdan bo'yin tovlasa, sud jazoning o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Bunda jazoni o'tashdan bo'yin tovlangan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

Jinoyat kodeksining 83-moddasiga ko'ra, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Agar voyaga yetmagan shaxs tayinlangan axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud bu jazoning o'talmagan qismini axloq tuzatish ishlarining har uch kunini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Axloq tuzatish ishlari Jinoyat kodeksining 83-

³ Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

moddasida nazarda tutilgan o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan maxsus shartlar asosida qo'llaniladi.⁴

Axloq tuzatish ishlari mahkumni sud hukmi bilan belgilangan muddatga majburiy ravishda mehnatga jalb qilib, uning ish haqidan davlat foydasiga muayyan miqdorda foiz undirish tariqasidagi jazo chorasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 84¹-moddasiga ko'ra voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Ozodlikni cheklash mahkumning yashash joyida o'tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo'yin tovlashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi. Ushbu jazo sudning qarori asosida mahkumning ma'lum bir huquqlarini cheklashdan iborat bo'lib, ularga yashash uyidan muayyan vaqt mobaynida yoki umuman chiqishni cheklash, muayyan joylarga bormaslik, ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik, muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik, transport vositasini boshqarmaslik, mahalliy hududdagi ta'limni olishi va ushbu hududdan chetga chiqishni cheklash, muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik, aloqa vositalari, shu jumladan internetdan foydalanmaslik, yashash va ish joyini maxsus ijro etuvchi organni ogohlantirmasdan o'zgartirmaslik kiradi. Sud ushbu jazo turini qo'llashga hukm qilganda shaxsning zimmasiga o'zi yetkazgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplash, ishga yoki o'qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga ko'maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi ham mumkin.

Jinoyat kodeksining 85-moddasiga ko'ra voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Sud tomonidan voyaga yetmagan shaxsga uni jamiyatdan ajratmasdan turib qayta tarbiyalashning imkoniyati bo'lmagan hollardagina ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni tayinlashda voyaga yetmagan shaxslarning ikki guruhi farqlanadi:

1. Jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan;
2. Jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

- og'ir jinoyat uchun – olti yilgacha;
- o'ta og'ir jinoyat uchun – o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.

- og'ir jinoyat uchun – yetti yilgacha;
- o'ta og'ir jinoyat uchun – o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.⁵

Jinoyat qonunchiligida qonun chiqaruvchi voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmasligi to'g'risidagi qoidani mustahkamlagan. Qayd etish kerakki, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jinoiy jazoni o'tash to'g'risida hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan mazkur turdagi jazoni tarbiya koloniyalarida o'tash tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga ko'ra sud voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni qo'llash imkoniyatini muhokama qilishi lozim. Sud aybdorni jamiyatdan ajratmasdan turib qayta tarbiyalashning imkoniyati bo'lmagan hollardagina ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashi mumkin.⁶

Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari yuzasidan hukm chiqarishda ularning jinoiy qilmishlariga xolisona baho berilishi, ularga nisbatan shartli hukm qilish hamda majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish masalasini atroflicha muhokama etilishi lozim. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda sud Jinoyat kodeksining 72-moddasiga muvofiq shartli jazo belgilashi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan shartli hukm qilinganda sinov muddati davrida qanday muayyan majburiyatlar yuklatilishi hukmda aniq ko'rsatiladi.

Ta'kidlash kerakki, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanayotganda yengilroq jazo tayinlash qoidasini qo'llash talab etilmaydi. Sudlanuvchiga u aybdor deb topilgan Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddasida nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazolarning tayinlanish hollari bundan mustasno.

o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda:

- ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati o'n yilgacha;

⁵O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>

⁶O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori

- agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n ikki yilgacha tayinlanadi.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda:

- ozodlikdan mahrum qilishning muddati o'n ikki yilgacha;

- sodir etilgan jinoyatlarning bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin⁷.

Jinoyat kodeksining 86-moddasida qonun chiqaruvchi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o'n besh yildan oshmasligi kerakligini nazarda tutadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari sud muhokamasiga qo'yilganda ayblanuvchi voyaga yetgan-yetmaganligidan qat'i nazar, advokat ishtirok etishligi shart ekanligini nazarda tutishlari kerak. Ushbu qoida jinoyatchilardan birini, shaxs 18 yoshga to'lmasdan oldin, ikkinchisini voyaga yetganidan so'ng sodir etganlikda ayblangan hollarda ham amal qiladi

Xulosa qilib shuni ayish joizki, bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan. Ta'kidlash joizki, qo'yilgan barcha vazifalarning negizi bo'lib eng avvalo inson huquqlari himoyasining kafolatlarini so'zsiz ta'minlash, qonun hamda adolat ustuvorligini qaror toptirish hisoblabadi. Shu bois bizdan ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan xolda o'z vakolarlarimiz, bilimimiz, tajribamiz va vir imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etish, bunda asosiy e'tiborni huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratish va bu borada bir qancha vazifalarni amalga oshirish, huquqiy mexanizmni ham takomillashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
2. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori
4. Sh.M. Mirziyoyev. <https://soglom.uz/archives/8338>.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>